

# Demografik holat


(dastlabki ma'lumotlar)

**Doimiy aholi soni.** Sirdaryo viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 aprel holatiga 818,4 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-mart oylarida 2,7 ming kishiga yoki 0,3 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 350,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 42,8 %), qishloq aholisi soni 467,7 ming kishini (57,2 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:**  
**2018 yil yanvar-mart**


- Aholi soni **2,7 ming kishiga** ko'paydi.
- **Tirik tug'ilganlar** soni **3,6 ming nafarni** tashkil etdi.
- **0,9 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **1,1 mingta nikoh** va **0,3 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

**Sirdaryo viloyati aholisining umumiy o'sishi**  
(2018 yil yanvar-mart oylarida)




## Demografik holat

**Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi**  
(2018 yil 1 aprel holatiga, Sirdaryo viloyat jami aholisiga nisbatan, %da)



Sirdaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni Boyovut tumanida 125,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,3 %ni) va Sirdaryo tumanida 124,1 ming kishini (15,2 %), aksincha eng kam aholi soni Shirin shahrida 18,5 ming kishini (2,3 %) va Yangiyer shahrida 41,8 ming kishi (5,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Boyovut va Sayhunobod tumanlarida 1,6 %ga, Xovos tumanida 1,7 %ga, Sirdaryo tumanida 1,3%ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Guliston shahrida 0,7 %ni, Shirin shahrida 0,5% va Oqoltin tumanida 1,4 %ni tashkil etdi.



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida 3,6 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 18,0 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,5 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-mart oylarida 19,5 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Mirzaobod tumanida (17,4 promilledan 22,0 promillega), Oqoltin tumanida (15,7 promilledan 21,9 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha kamayish esa Yangiyer (21,3 promilledan 18,1 promillega) va Xovos (20,0 promilledan 17,8 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

### Sirdaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni (Yanvar-mart, kishida)

	2017 y.	2018 y.	o'sish sur'ati % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>3861</b>	<b>3627</b>	<b>93,9</b>
Guliston sh.	376	332	88,3
Shirin sh.	75	62	82,7
Yangiyer sh.	182	219	120,3
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	267	194	72,7
Boyovut	653	580	88,8
Guliston	326	318	97,5
Sayhunobod	350	319	91,1
Mirzaobod	371	300	80,9
Sardoba	337	322	95,5
Sirdaryo	525	527	100,4
Xovos	399	454	113,8

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida 0,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-mart oylarida 5,0 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Shirin shahrida (6,4 promilledan 4,4 promillega) va Oqoltin tumanida (4,4 promilledan 3,6 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Guliston shahrida (6,2 promilledan 7,2 promillega), Guliston tumanida (4,8 promilledan 5,5 promillega), Sirdaryo (5,0 promilledan 6,3 promillega) va Xovos (3,5 promilledan 4,7 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Sirdaryo viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (Yanvar-mart, kishida)


	2017 y.	2018 y.	o'sish sur'ati % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>984</b>	<b>926</b>	<b>94,1</b>
Guliston sh.	155	135	87,1
Shirin sh.	20	29	145
Yangiyer sh.	50	49	98
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	44	55	125
Boyovut	118	139	117,8
Guliston	91	82	90,1
Sayhunobod	67	74	110,4
Mirzaobod	76	73	96,1
Sardoba	67	57	85,1
Sirdaryo	191	153	80,1
Xovos	105	80	76,2

## Demografik holat

2018 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 64,6 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,3 %i o'simtalardan, 5,1 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,7 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,6 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 9,3 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,04 ming nafarni tashkil etib, ularning 65,0 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 15,0 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 15,0 %i tug'ma anomaliyalardan, 0,0 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,0 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 0,0 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 5,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi**  
(jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2018 yil yanvar-mart

**Tabiiy o'sish.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 2,7 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan 0,1 ming kishiga (2017 yilning yanvar-mart oylarida 2,8 ming kishi bo'lgan) kamaygan.



Tabiiy o'sish:  
2,7 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh va nikohdan ajralishlar.** 2018 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,1 ming nikoh va 0,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 5,6 va 1,4 promilleni tashkil etdi.



**Sirdaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajralishlar soni, birlik (Yanvar-mart)**

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati % da	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>954</b>	<b>1131</b>	<b>118,6</b>	<b>243</b>	<b>279</b>	<b>114,8</b>
Guliston sh.	100	118	118,0	51	55	107,8
Shirin sh.	18	21	116,7	3	3	100,0
Yangiyer sh.	50	62	124,0	15	21	140,0
<i>tumanlar:</i>						
Oqoltin	66	77	116,7	12	19	158,3
Boyovut	159	165	103,8	34	41	120,6
Guliston	67	84	125,4	16	14	87,5
Sayhunobod	65	80	123,1	19	16	84,2
Mirzaobod	73	86	117,8	16	16	100,0
Sardoba	80	131	163,8	11	14	127,3
Sirdaryo	151	172	113,9	49	57	116,3
Xovos	125	135	108,0	17	23	135,3

## Demografik holat

**Migratsiya.** 2018 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,4 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 2,6 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,2 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 0,4 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi) Yanvar-mart

	2017 yil	2018 yil
<b>Ko'chib kelganlar</b>	2,1	2,4
<b>Ko'chib ketganlar</b>	2,5	2,6
<b>Migratsiya saldosini</b>	- 0,4	- 0,2

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Guliston shahri va Sayhunobod tumani (minus 0,1 ming kishi), Sirdaryo tumani (minus 0,1 ming kishi) qayd etildi.

Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi  
Demografiya va mehnat statistikasi bo'lim boshliq.

Nashr uchun mas'ul: Erkaboyev Z

(71) 230-86-32